

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
MOSCOW • RUSSIA



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

MILLIY GVARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI	10
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li FOND BOZORLARIGA XORIJIY KAPITALNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	17
Yusupova Jamila Karamatdinovna AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI	21
Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI	26
Eshonqulov Akmal Qudratovich XORAZM VILOYATINING IJOBIY IMIJINI OSHIRISHDA HUDUDIIY MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	34
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich OROL BO'YI MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA TURIZMNI YASHIL MOLIVALASHTIRISH VA INVESTITSIYA MEXANIZMLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	40
Akramova Feruza ATMOSFERA HAVOSI MONITORINGIDA IOT SENSORLARI O'LCHASH NATIJALARINING METROLOGIK ISHONCHLILIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	52
Sobirov Anvarjon, Melibayev Maxmudjan BANK VA KREDIT MUASSASALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TREND MODELLARI YORDAMIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH USULLARI	59
Nazarov Elbek PHYSALIS ALKEKENGII O'SIMLIGIDAN FLAVONOIDLARNI AJRATIB OLISHNING BIOTEXNOLOGIK USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH	66
Xidirova Saboxat Baxrillayevna ЧИСЛЕННАЯ ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ЗОН КОНЦЕНТРАЦИИ НАПРЯЖЕНИЙ В МАССИВЕ ГОРНЫХ ПОРОД ПРИ ВЛИЯНИИ ПРОЦЕССОВ ДОБЫЧИ В УСЛОВИЯХ РУДНИКА «КЫЗЫЛ-АЛМА»	70
Салямова Клара, Меликулов Абдусаттар, Уралбаев Абдукахар, Бакиров Гайрат, Зухритдинов Давронбек XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI, IT MUTAXASSISLARINING YETISHMASLIGI VA ISHSIZLIKNING TA'LIM SIFATI HAMDA BARQARORLIGIGA TA'SIRI: ILG'OR XORIJ TAJIRIBASI VA UNING O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETILISHI	77
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	82
Normamatov A. A. IPAKCHILIK KLASSTERLARI UCHUN INVESTITSION BOSHQARUV MODELINI ASOSLASH	87
Elboyeva Shaxzoda Olimovna KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK USULLARDA TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI	94
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li OLIIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	101
Usmanov Sarvar Nigmatovich	



РАЗРАБОТКА АДАПТИВНОГО МНОГОЗОНАЛЬНОГО АЛГОРИТМА УПРАВЛЕНИЯ FUZZY-PID ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАВНОМЕРНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ВЛАЖНОСТИ В ПРОЦЕССЕ УВЛАЖНЕНИЯ ЗЕРНА.....	107
Камариддинов Шохрух Акмал угли	
SANOAT KLASSTERLARIDA “SANOAT 4.0” TECHNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA HAMKORLIK MODELLARI	113
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	119
Normamatov A. A.	
YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	124
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
HUDUDIIY TURIZMDA XALQARO ESG MEZONLARINI MILLIY SHAROITGA MOSLASHTIRISH YO'NALISHLARI	128
Maxmudova Nodira Uktamovna	
EVALUATION OF TECHNOLOGICAL LOSSES OF HYDROCARBONS OF LIGHT FRACTIONS IN THE PROCESSES OF COLLECTION AND PRIMARY TREATMENT AT THE MUBARAK FIELDS OF OGPD.....	134
Norqulov Shohbozbek Samandar ugli	
АНАЛИЗ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	140
Жумадуллаева Дурдона Шухрат кизи	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TA'LIMNING SIFAT VA USTUVORLIGIGA TA'SIRI VA UNI TA'MINLASH YO'LLARI	145
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	150
Kilichov Nazar Bafoyevich	
HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA BANDLIGIGA TA'SIRINING TAHLILI	157
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI VA BAHOLASH	164
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol qizi	
COMPETITION IN THE INFORMATION MARKET: MONOPOLY TRENDS AND THE DIGITAL PLATFORM ECONOMY.....	169
Mo'ydinjonova Durdonaxon, Ismanov Ibrohim	
BOZOR INFRATUZILMASINING IQTISODIY MAZMUNI VA KICHIK BIZNES RIVOJIDAGI AHAMIYATI	174
Ganiyev Botir Baxtiyorovich	
MAGNIY VA KALSIY ELEMENTLARINI O'RGATISHDA O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	178
Esnazarov Abdiganij Jamalatdinovich	
DATA-DRIVEN STRATEGIK MENEJMENT: MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN BOSHQARUVNING ZAMONAVIY KORXONALAR RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI	184
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
YASHIL BUXGALTERIYA (GREEN ACCOUNTING) VA ESG HISOBOTLARI: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK VOSITALARI	190
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ	196
Нуралиева Мукаддас Мамуровна	



AGROSANOAT MAJMUASIDA INVESTISIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA MUSTAHKAMLASH MASALALARI	201
Xakimov Rashid	
TADBIRKORLIKDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARALARI	206
Salohiddinov Zuhridin Nuriddinjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH HOLATINI TAHLIL QILISH	212
Achilova Firuza, Zohidov Jamshid	
NAMANGAN VILOYATINING BOSHQA HUDUDLAR BILAN TOVAR VA XIZMATLAR AYLANMASI HAMDA IQTISODIY ALOQALARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	217
Sattarov R.A.	
ОПТИМАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ	222
Нурмуродов Камолиддин Пирмаматович	
OPTIK ABONENT KIRISH TARMOG'INING XIZMATLARI SAMARADORLIGI	230
Uskenbayeva Dilfuza Shuxrat qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLARNI EKONOMETRIK MODELLARINI TUZISH VA PROGNOZLASH	235
Siroj Zarina Rustambekovna	
QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA AGROKLASTERLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	242
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
HUNARMANDCHILIK KLASSTERLARI BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA: TURKIYA, MAROKASH VA FRANSIYA MODELLARINING QIYOSIY TAHLILI	249
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li	
BANK TIZIMIDA LIKVIDLILIK VA KAPITAL YETARLILIGI RISKLARINI BOSHQARISH MASALALARI ...	255
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
O'ZBEKISTON QISHLOQ HUDUDLARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL OMILLARI	258
Saidakbarova Ziyoda Doniyor qizi	
BIOLOGIK AKTIVLARNI HAQQONIQIY QIYMATDA BAHOLASHNING KO'P OMILLI MODEL	266
Akhmetova Salima Seytovna	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY - USLUBIY JIHLTLARI	272
Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich	
YASHIL INVESTITSİYALAR MINTAQQA IQTISODIYOTINI BARQAROR DIVERSIFIKATSİYALASH VOSITASI SIFATIDA	281
To'xtayev Maqsud Mansurovich	
DAVLAT MUASSASALARIDA INSON RESURLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	287
Xusanova Muxsina Kasimovna	
O'ZBEKISTONDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I MA'MURIYATCHILIGINI RIVOJLANISH QONUNIYATLARI VA UNDAGI TIZIMLI MUAMMOLAR TAHLILI	294
Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD MANBALARI INDEKSI VA UNING RENTABELLIGIGA TA'SIRI	300
Ahmedov Komron Muhammad-Alievich	
KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARINING ISHLASH TAMOIYILLARI VA ULARNI QURILISH KORXONALARI AMALIYOTIGA JORIY ETISH MASALALARI	308
G'iyosov Ilxom Karimovich	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	316
Sattarov R.A.	



UY-JOY BOZORIDA BIRLAMCHI VA IKKILAMCHI SEGMENTLAR O'RTASIDAGI NARX TAFOVUTLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNING IQTISODIY TAHLILI	322
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
TABIY RESURLAR SAMARADORLIGI VA INSON KAPITALI INTEGRATSIYASINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON HUDUDLARI MISOLIDA	329
Yusubboyeva Dinora Quadrat qizi	
CHAKANA SAVDODA MAHSULOT TALABINI BASHORATLASH USULLARI	336
Mamatov Narzullo, Baxtiyorova Mohiruy	
SOLIQ AUDITIDAGI XAVF-XATARLARNI TAHLIL QILISH (RISK-ANALIZ) TIZIMI VA BUXGALTERNING HIMOYA TAKTIKASI	343
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM XIZMATLARI SIFATINING NAZARIY ASOSLARI	347
Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich	
MA'LUMOTLARNI MOLIVAVIY HISOBOTDA TAQDIM ETISHNING XORIY TAJRIBASI.....	351
Kozimjonov Abrorbek	
TADBIRKORLIK INFRATUZILMASINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ORQALI SANOAT ZONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	357
Arifbayev Bobir Dilshodovich	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA TRANSCHEGARAVIY SUG'URTA VA DAVLAT KAFOLATLARI MEXANIZMLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	364
Kengesbaeva Suliuxan Maxsetbay qizi	
20GL MARKALI PO'LATDAN TAYYORLANADIGAN YUK VAGONI YON RAMASI QUYMASIDA KIRISHUV G'OVAKLAR HOSIL BO'LISH QONUNIYATLARINI TADQIQ QILISH	368
Chorshanbiyeva Lobar, Turaxodjayev Nodir, Nuriddinov Otabek, Kenjayev Elshod	
O'ZGARUVCHAN TEZLIKLI, OG'MA QATOR QOZIQLI, SINUSOIDAL PLANKALI BARABANLARDA PAXTA BO'LAGINING ZARBALI TA'SIRI MODEL.....	374
Djurayev Anvar, Qorachayeva Oltinoy	
SANOAT KORXONALARINI ESG ASOSIDA JARAYONLI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	379
Azimova Maxfuza Rashidovna	
TURIZM SOHASIDA AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASH VA YANGI ISH O'RINLARINI YARATISHGA QARATILGAN TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASH	386
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINI SOLIQQA TORTISHNING HUQUQIY ASOSLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	391
Sarsengalieva Albina, Sarsenbaev Bakhitjan	
DETERMINANTS OF THE SHADOW ECONOMY: A CONCEPTUAL CLASSIFICATION AND CROSS-COUNTRY EVIDENCE	395
Rakhmonov Azizjon Sadullayevich	
ELEKTRON TIJORAT ORQALI CHAKANA SAVDONI OSHIRISH YO'LLARI (POYABZAL SANOATI MISOLIDA)	403
Makhmudova Munisaxon Abbos qizi	
BYUDJET TASHKILOTLARI AUDITIDA AUDITORLIK TANLAMASINING IQTISODIY MOHIYATI VA TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH.....	408
Muqumov Jasur Bosimovich	
BYUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	415
Aitmuratova Miyrigul Jalgasovna	



BYUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Aitmuratova Miyrigul Jalgasovna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, PhD.

E-mail: mirkaajtmuratova@gmail.com

ORCID: 0009-0003-4981-1998



Annotatsiya. Ushbu maqolada byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish masalalari tadqiq qilingan. Davlat mablag'laridan oqilona, shaffof va maqsadli foydalanishni ta'minlashda ichki auditning roli, huquqiy-me'yoriy asoslari hamda amaliyotda uchrayotgan tizimli muammolar tahlil etilgan. Shuningdek, moliya tizimini raqamlashtirish, xususan, "UzASBO" dasturiy majmuasining ahamiyati, g'azna ijrosi sharoitida vaqtinchalik hamda maxsus mablag'lar hisobini yuritish va hujjatlashtirish tartibi yoritilgan. Tadqiqot natijasida ichki auditni an'anaviy taftishdan xatarlarga asoslangan (risk-based) va maslahat beruvchi tizimga o'tkazish, auditorlar malakasini oshirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: byudjet tashkiloti, ichki audit, moliyaviy nazorat, g'aznachilik, UzASBO, raqamlashtirish, vaqtinchalik mablag'lar, maxsus mablag'lar, xatarga asoslangan audit (risk-based audit), samaradorlik.

Аннотация. В данной статье исследованы вопросы совершенствования системы внутреннего аудита в бюджетных организациях и повышения эффективности ее функционирования. Проанализированы роль внутреннего аудита в обеспечении рационального, прозрачного и целевого использования государственных средств, его нормативно-правовые основы, а также системные проблемы, возникающие в практической деятельности. Особое внимание уделено цифровизации финансовой системы, значению программного комплекса «UzASBO», а также порядку ведения учета и документального оформления временных и специальных средств в условиях казначейского исполнения бюджета. По результатам исследования разработаны научно-практические рекомендации по переходу от традиционной ревизионной модели внутреннего аудита к риск-ориентированному (risk-based) и консультационному подходу, повышению квалификации внутренних аудиторов и внедрению современных цифровых технологий.

Ключевые слова: бюджетная организация, внутренний аудит, финансовый контроль, казначейство, UzASBO, цифровизация, временные средства, специальные средства, риск-ориентированный аудит (risk-based audit), эффективность.

Abstract. This article examines the issues of improving the internal audit system and enhancing its effectiveness in budgetary organizations. It analyzes the role of internal audit in ensuring the efficient, transparent, and targeted use of public funds, as well as its legal and regulatory framework and the systemic challenges encountered in practice. Particular attention is given to the digitalization of the public financial management system, the significance of the **UzASBO** software platform, and the procedures for accounting and documenting temporary and special funds under the treasury execution system. Based on the research findings, scientific and practical recommendations are proposed for transforming internal audit from a traditional inspection-based approach to a risk-based and advisory-oriented system, improving auditors' professional competencies, and implementing modern digital technologies.

Keywords: budgetary organization, internal audit, financial control, treasury system, UzASBO, digitalization, temporary funds, special funds, risk-based audit, efficiency.

KIRISH

Byudjet tashkilotlari – bu davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va jamiyatga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan notijorat yuridik shaxslar hisoblanadi. Ular iqtisodiyotning real sektori ishtirokchilariga nisbatan sof daromad olish maqsadiga ega bo'lmaganligi bilan ajralib turadi. Asosiy faoliyat turlari ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport, ijtimoiy himoya, davlat boshqaruvi va boshqa ijtimoiy sohalarni qamrab oladi. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimida o'tkazilgan islohotlarning asosi moliyaviy tizimda byudjet ijrosini ta'minlashda g'aznachilik tizimini joriy etish bilan bog'liqdir.

Mazkur islohotlarning bosh maqsadi — byudjet mablag'larini samarali boshqarish, ularning harakatini qat'iy nazorat qilish hamda barcha byudjet tashkilotlari uchun yagona g'aznachilik hisobvarag'ini joriy etishdan iboratdir. Ushbu islohotlar doirasida mamlakatimizda davlat byudjetining g'aznachilik tizimi orqali ijro

etilishi borasida qator amaliy ishlar amalga oshirilib, e'tiborga molik natijalarga erishildi. Ichki audit moliyaviy nazoratning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. U orqali tashkilotning o'zida nazoratni ta'minlash va samaradorlikni baholash imkoniyati yaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro amaliyotda davlat sektorida ichki auditning o'rni ko'pincha Yangi davlat boshqaruvi (New Public Management — NPM) va ijtimoiy mas'uliyat nazariyalari doirasida tushuntiriladi. COSO (Sponsoring Organizations Committee) modeli va INTOSAI (Oliy audit organlari xalqaro tashkiloti) standartlari davlat tashkilotlarida ichki nazorat va audit tizimining poydevori hisoblanadi [1].

Xalqaro tadqiqotchilardan Islam Abdeljawad et al. (2020) ichki auditning mustaqilligi va professionalligi davlat mablag'larining maqsadsiz sarflanishini kamaytirishda bosh omil ekanligini ta'kidlaganlar [2].

M. Power (1997) o'zining "Audit jamiyati" (The Audit Society) asarida davlat sektorida audit faqatgina raqamlarni tekshirish emas, balki tashkilot faoliyati samaradorligini oshirish va shaffoflikni ta'minlovchi ijtimoiy institutga aylanishi kerakligini asoslab bergan [3].

O'zbekistonda byudjet tizimini isloh qilish va davlat moliyaviy nazoratini (jumladan, ichki auditni) takomillashtirish masalalari iqtisodchi olimlarimiz tomonidan faol o'rganilmoqda. M. Tulaxodjayeva o'z tadqiqotlarida auditning huquqiy asoslari va xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka moslashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratgan [4].

I. Davlatov va K. Axmedjanov kabi olimlar byudjet tashkilotlarida ichki auditning mustaqilligini ta'minlash va uni tashqi nazorat (Hisob palatasi, Moliya vazirligi nazorati) bilan muvofiqlashtirish muammolarini tahlil qilganlar [5].

A. Karimov va jamoasi byudjet muassasalarida buxgalteriya hisobi va auditning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib, unda xarajatlar smetasining bajarilishi ustidan nazorat mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar bergan [6].

Aksariyat mahalliy tadqiqotlar ichki auditni haligacha "taftish" (reviziya) yoki jazolash vositasi sifatida ko'rishadi. Zamonaviy yondashuv esa ichki auditni xatarlarning oldini oluvchi (risk-based) va maslahat beruvchi tizim sifatida talqin etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mablag'lar auditlari – bu yuridik shaxslarning, xususan, byudjet tashkilotlari, davlat korxonalari va tijorat banklari tomonidan tasarruf etilgan moliyaviy resurslarning shakllanishi, harakatlanishi va sarflanishi ustidan tizimli ravishda o'rganiladigan, huquqiy va iqtisodiy tahlil asosidagi mustaqil tekshiruv jarayonidir.

Mazkur audit turi moliyaviy intizomni kuchaytirish, resurslardan maqsadli va oqilona foydalanilishini aniqlash, byudjet mablag'larining samarasiz sarflanishining oldini olishga qaratilgan. U, ayniqsa, davlat moliyasining ochiqqligini ta'minlash va korrupsiya holatlarining oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Auditning maqsadlari quyidagicha:

- Ajratilgan moliyaviy mablag'larning maqsadli va qonuniy ishlatilganligini aniqlash;
- Moliyaviy hujjatlar va hisobotlarning ishonchligini tekshirish;
- Byudjet intizomiga rioya qilinayotganini baholash;
- Ortiqcha xarajatlar, yo'qotishlar yoki moliyaviy xatoliklarni aniqlash;
- Tashkilot ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash va takliflar berish.

O'zbekiston Respublikasida mablag'lar auditlari quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi:

- "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun;
- "Davlat moliyaviy nazorati to'g'risida"gi Qonun;
- Prezident farmonlari va hukumat qarorlari;
- Moliya vazirligi reglamenti va metodikalari;
- Hisob palatasi va boshqa nazorat organlari ko'rsatmalari;
- Ichki audit – tashkilotning o'zida amalga oshiriladi;
- Tashqi audit – davlat moliyaviy nazorati organlari tomonidan o'tkaziladi;
- Rejalashtirilgan audit – yiliga belgilangan reja asosida;
- Favqulodda audit – shikoyatlar yoki qonunbuzarlik holatlarida o'tkaziladi.

Masalan, 2023-yilda O'zbekiston bo'yicha 1500 dan ortiq byudjet tashkilotlarida audit o'tkazilib, 320 mlrd so'mlik moliyaviy kamchiliklar aniqlangan. Natijada, 210 mlrd so'm byudjetga qaytarilgan, 400 dan ortiq xodim intizomiy va ma'muriy javobgarlikka tortilgan.



Mablag'lar auditi davlat moliyaviy boshqaruvida muhim nazorat vositasi bo'lib, uning samarali amalga oshirilishi byudjet mablag'larining shaffof va maqsadli sarflanishini ta'minlaydi hamda tashkilotlarning moliyaviy faoliyatini tartibga solishda asosiy rol o'ynaydi. Audit yuzasidan taklif etilayotgan chora-tadbirlar:

- Har bir byudjet tashkilotida ichki audit xizmatini tashkil etish;
- Auditorlarni sertifikatlash (masalan, CIA yoki CGAP xalqaro sertifikatlari);
- Moliya vazirligi tomonidan muntazam malaka oshirish kurslari tashkil etish;
- Audit hisobotlariga asoslangan rag'batlantirish yoki javobgarlik tizimini joriy qilish.

Ichki auditning faol yuritilishi orqali noto'g'ri moliyaviy harakatlarning oldi olinadi va resurslardan samarali foydalanish darajasi oshadi.

Tashkilotning ixtiyoriga vaqtinchalik tushgan va ma'lum shartlar bajarilgandan keyin qaytarilishi lozim bo'lgan summalar hisobi buxgalteriya hisobida alohida aks ettiriladi. Bu muomalalar asosan sud, prokuratura, ichki ishlar organlarida sodir bo'ladi. Ya'ni jinoyat ishlari bo'yicha dastlabki surishtiruv jarayonida olingan mablag'larni bunga misol qilib aytish mumkin. Byudjet tashkilotlari ixtiyoriga vaqtinchalik tushgan va ma'lum shartlar bajarilgandan keyin qaytarilishi lozim bo'lgan mablag'lar buxgalteriya hisobida «Byudjet tashkilotining ixtiyorida vaqtincha bo'ladigan mablag'lar bo'yicha hisob-kitoblar» subschyotida yuritiladi. Bu schyotning kredit tomonida tashkilotning ixtiyoriga vaqtinchalik tushgan summalar, debet tomonida esa bu summalarining qaytarilishi, hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi (1-jadval).

1-jadval.

Vaqtincha bo'ladigan mablag'lar bo'yicha hisoblashuvlar hisobini hujjatlashtirishning sxematik ko'rinishi¹

No	Muomalalar mazmuni	Dt	Kt	Asos bo'luvchi hujjat
1	Prokuratura organlari tomonidan dastlabki surishtiruv jarayonida olingan mablag'lar summasiga	151000	102400	Shaxsiy hisobvaraqdan ko'chirma
2	Prokuratura organlari tomonidan dastlabki surishtiruv jarayonida olingan mablag'lar qaytarilishi	102400	151000	Shaxsiy hisobvaraqdan ko'chirma

Byudjet tashkilotining vaqtincha ixtiyorida bo'ladigan mablag'lar summalarining analitik hisobi har bir oluvchi bo'yicha 292-son shakldagi joriy hisoblar va hisob-kitoblar daftarida (kartochkasida) olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimida o'tkazilayotgan islohotlar, xususan, "UzasBO" tizimining joriy etilishi, yagona g'aznachilik hisobvaraqlari orqali moliyaviy operatsiyalarni yuritish, elektron hujjat aylanishi kabi mexanizmlar audit jarayonining zamonaviylashtirilishiga zamin yaratmoqda. Bu esa auditorlik faoliyatining texnik va metodik jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga olib kelmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mablag'lar auditida mavjud asosiy muammolar – ichki auditning sustligi, xodimlarning malaka darajasining pastligi, avtomatlashtirilgan tizimlardan to'liq foydalana olmaslik kabi omillardir. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun auditorlik faoliyatini raqamlashtirish, sohaga tajribali mutaxassislarni jalb etish, doimiy o'quv-amaliy mashg'ulotlar tashkil etish zarur.

Mablag'lar auditi natijalariga tayanib, byudjet tashkilotlarining moliyaviy faoliyati yanada tizimli va samarali yo'lga qo'yiladi. Ayniqsa, joylardagi — tuman va viloyat darajasidagi amaliyotlar asosida aniqlangan holatlar mamlakat miqyosida audit tizimini yanada takomillashtirishga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa davlat mablag'larining oqilona sarflanishi, moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy islohotlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi. Byudjet tashkilotlarida audit tizimi — davlat moliyaviy boshqaruvining asosiy nazorat vositasi sifatida xizmat qiladi. Audit orqali tashkilotlarning moliyaviy faoliyati, resurslardan foydalanish samaradorligi, byudjet mablag'larining maqsadga muvofiqligi, qonuniyligi va ishonchliligi baholanadi. Shu sababli, audit tizimi moliyaviy intizomni ta'minlashda, korrupsion holatlarning oldini olishda va byudjet siyosatini samarali amalga oshirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan moliyaviy islohotlar natijasida auditning tashkiliy-huquqiy bazasi mustahkamlanib bormoqda. Xususan, "Davlat moliyaviy nazorati to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi, Hisob palatasi va Moliya vazirligi huzuridagi ichki audit xizmatlarining faoliyati kengaytirilgani audit jarayonlarini zamonaviylashtirish va ularning samarasini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, joylarda olib borilgan amaliy kuzatuvlar audit jarayonlarida bir qator muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Jumladan: ichki audit xizmati ko'pchilik byudjet tashkilotlarida tashkil etilmagan yoki yetarlicha faol emas, auditorlarning kasbiy malakasi yetarli darajada emas, tavsiyalar ijrosi to'liq ta'minlanmayapti. Bular audit tizimini yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



Buxgalteriya hisobida to'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar «To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar» subschyotida yuritiladi. Bu subschyotning debet tomonida to'lovlarning maxsus turlari bo'yicha hisoblangan summa, kredit tomonida ushbu mablag'larning kelib tushishi aks ettiriladi (2-jadval).

2-jadval.

Maxsus turlariga doir hisoblashuvlar hisobini hujjatlashtirishning sxematik ko'rinishi²

№	Muomalalar mazmuni	Asos bo'luvchi hujjat
1	Bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida (bolalar bog'chalari va yashilarda) saqlanganligi uchun ota-onalar to'lashi kerak bo'lgan mablag'lar summasiga	305-son shakldagi bolalarning davomat hisobi bo'yicha tabel Buxgalteriya ma'lumotnomalari
2	Bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida (bolalar bog'chalari va yashilarda) saqlanganligi uchun ota-onalar kelib tushgan mablag'lar summasiga	Shaxsiy xisobvaraqdan ko'chirma
3	Bolalar maktabgacha ta'lim muassasasidan chiqarib olingan taqdirda oldindan to'langan summa ota-onalarga ularning arizasiga asosan qaytarilganda	Shaxsiy xisobvaraqdan ko'chirma, kassa chiqim orderi

Bolalar maktabgacha ta'lim muassasasidan chiqarib olingan taqdirda oldindan to'langan summa ota-onalarga ularning arizasiga muvofiq maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarining ko'rsatmasiga binoan qaytariladi. Ariza maktabgacha ta'lim muassasasi buxgalteriyasiga rahbarning ko'rsatmasi va bolalarning bog'chaga qatnashi hisobi olib boriladigan navbatdagi tabel bilan birgalikda topshiriladi.

Tahlil va natijalar

Zamonaviy moliyaviy boshqaruv tizimida raqamlashtirish asosiy o'rin egallaydi. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya va audit jarayonlarini to'liq avtomatlashtirish zarur. Quyidagilarni joriy etish taklif qilinadi:

- “UzASBO” tizimini barcha tashkilotlarda to'liq ishga tushirish;
 - Hisobotlarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi axborot tizimlarini yaratish;
 - Mobil ilovalar va elektron imzolar orqali masofaviy nazoratni kuchaytirish;
 - Sun'iy intellekt va katta hajmdagi ma'lumotlar (*Big Data*) orqali moliyaviy tahlil imkoniyatlarini kengaytirish.
- Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, raqamlashtirish yordamida davlat xarajatlari ustidan nazorat darajasi 30–40 % ga ortadi.

Davlat byudjetidan moliyaviy ta'minot oluvchi tashkilotlar rahbarlari, ularning ajratilgan mablag'lardan belgilangan maqsadlarda foydalanish huquqi mavjud bo'lganligi uchun, byudjet mablag'lari boshqaruvchilari sifatida e'tirof etiladi. Ular o'z vakolati, mas'uliyati va majburiyatlari doirasiga qarab uch darajali tasnif asosida turkumlanadi. Respublika darajasida, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti doirasida faoliyat yurituvchi vazirliklar va boshqa davlat muassasalari rahbarlari birinchi darajali byudjet mablag'lari boshqaruvchilari hisoblanadi. Viloyatlar va Toshkent shahri kabi mahalliy byudjetlar kontekstida esa hokimiyat tizimining vakillari birinchi darajali boshqaruvchi sifatida e'tirof etiladi. O'z tasarrufida boshqa yuridik shaxslar (bo'limlar, boshqarmalar, muassasalar, markazlar) mavjud bo'lgan tashkilot rahbarlari esa ikkinchi darajadagi byudjet mablag'lari boshqaruvchilari hisoblanadi. Ular to'g'ridan to'g'ri birinchi darajali boshqaruvchilarga bo'ysunadi.

Birinchi yoki ikkinchi darajadagi boshqaruvchilarning tasarrufida faoliyat yurituvchi tashkilotlar rahbarlari uchinchi darajali mablag'lar boshqaruvchilari bo'lib, ularga byudjet mablag'laridan foydalanuvchi sifatida qonuniy ruxsat berilgan.

Mahalliy byudjet tizimida boshqaruvchilarning ikki darajaga bo'linishi mahalliy hokimiyat organlarining ikki pog'onali boshqaruv tizimiga ega ekani bilan izohlanadi. Zamonaviy sharoitda raqamlashtirish (raqamli transformatsiya) davlat boshqaruvi tizimining tub islohoti hisoblanadi. Byudjet tashkilotlarida raqamlashtirish — bu an'anaviy jarayonlarning raqamli texnologiyalar yordamida avtomatlashtirilishi, ma'lumotlar bazasi va axborot tizimlarining yagona elektron platformaga o'tkazilishi, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish jarayonidir.

Ushbu strategiya quyidagi global maqsadlarga xizmat qiladi:

- Boshqaruv samaradorligini oshirish;
- Moliyaviy oqimlarni real vaqt rejimida nazorat qilish;

2 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



- Inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytirish;
- Hisobotlar tayyorlash tezligi va aniqligini oshirish;
- Fuqarolarga ko'rsatilayotgan davlat xizmatlarining sifatini yaxshilash.

Strategik yo'nalishlar

Byudjet tashkilotlarida raqamlashtirish strategiyasi quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

a) Axborot tizimlarini integratsiyalash:

- UzASBO (O'zbekiston avtomatlashtirilgan byudjet hisoboti tizimi);
- Elektron hujjat aylanish tizimlari (E-xat, E-imzo);
- Soliq va Moliya vazirliklarining ma'lumotlar bazalari bilan uyg'unlikda ishlash.

b) Elektron xarajatlar monitoringi:

- Har bir byudjet mablag'ining maqsadli va oqilona sarflanishini kuzatib borish;
- Real vaqt rejimida xarajatlar dinamikasini tahlil qilish.

c) Kadrlar raqamli savodxonligini oshirish:

- Davlat xizmatchilarini raqamli kompetensiyalar bo'yicha doimiy o'qitish;
- *E-learning* platformalari orqali uzluksiz kasbiy rivojlanish.

d) Ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik:

- Kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish;
- Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha ISO va boshqa xalqaro standartlarga rioya qilish.

O'zbekistonda 2021-yildan boshlab UzASBO tizimi orqali byudjet tashkilotlarining moliyaviy faoliyati avtomatlashtirildi. 2024-yil yakuniga kelib, 8000 dan ortiq byudjet tashkiloti ushbu platformada faoliyat yuritmoqda. Bu esa:

- Xarajatlar ustidan nazoratni 2 baravar oshirdi;
- Xatoliklar sonini 35 % ga kamaytirdi;
- Davlat xizmatlarini ko'rsatish tezligini sezilarli darajada yaxshiladi.
- Kelajakda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:
- Sun'iy intellekt asosida moliyaviy prognozlash;
- Blokcheyn texnologiyalari asosida shartnomalar va to'lovlarni boshqarish;
- Mobil ilovalar orqali real vaqtli monitoring va hisobdorlik.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Byudjet tashkilotlarida mablag'lar auditi moliyaviy nazorat tizimining ajralmas va muhim tarkibiy qismi bo'lib, mablag'larning maqsadli va samarali ishlatilishini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mablag'lar auditi orqali nafaqat moliyaviy intizomni mustahkamlash, balki byudjet siyosatining ochiqligi, shaffofligi va ishonchligi ta'minlanadi.

Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risidagi qonunga asosan, Davlat byudjeti g'azna ijrosining asosiy prinsiplari kassaning yagonaligi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning yagonaligidir. Davlat byudjetining g'azna ijrosi Davlat byudjetining barcha daromadlarini yagona g'azna hisobvarag'iga kiritishdan, shuningdek, Davlat byudjetining xarajatlarini shu hisobvaraqdan to'lashdan iborat. Davlat byudjetining g'azna ijrosi moliya yili mobaynida hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan qo'shimcha vaqt davrida amalga oshiriladi. Davlat byudjetining g'azna ijrosi qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladigan maxsus vakolatli moliya organi hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlardagi hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdeljawad I., et al. *Audit Committee versus Other Governance Mechanisms and the Effect of Investment Opportunities: Evidence from Palestine* [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: https://www.researchgate.net/publication/340235084_Audit_committee_versus_other_governance_mechanisms_and_the_effect_of_investment_opportunities_evidence_from_Palestine (murojaat sanasi: 16.07.2026).
2. Tulli M. M. *Auditing Practices and Organizational Efficiency in Local Government Authorities: A Case Study of Tanzania* // *Journal of Finance and Accounting*. – 2014. – Vol. 2, No. 4. – P. 100–114. – DOI: 10.12691/jfa-2-4-3.
3. Tulaxodjaeva M. M., Ilhamov Sh. I. *Audit*: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2012. – 578 b.
4. Axmedjanov K. B. *Ichki audit*: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019.
5. Tulaxodjaeva M. J., Karimov A. A., Rajabov N. K., Olimov I. K., Ismoilova M. Y. *Improving the CVP-Analysis as a Tool for Management Decision-Making* // *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*. – 2021. – Vol. 12. – No. 8.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100